



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 7, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 7, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2024

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори,  
профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари  
университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика  
университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори,  
Тошкент ирригация ва кишлоқ  
хужалиғини механизациялаш  
муҳандислари институти  
Миллий тадқиқот университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайжон давлат  
иқтисодиёт университети

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариши муҳандислик-иқтисодиёт  
институти

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Қариши давлат университети

**Махкамова Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари  
университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Джоробекова Айнуэр Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қозоғистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Қозоғистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмудалиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори,  
Озарбайжон давлат университети

**Санпова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори,  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Ўзбекистон Миллий университети

**Худайкулов Тулқин Дўстбобоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз далам педагогика институти

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети


**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети

Page Maker | Верстка | Са, ифаловчи: @tadqiqotdesign

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000


<b>1. Жаҳонгирбек Жонқобилов</b> СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДАН КЕЙИНГИ ЙИЛЛАРДА СУҒОРИШ ТИЗИМИНИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ.....	4
<b>2. Обиджан Мадаминов</b> ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА ХАЛҚАРО МУНОСАБАТЛАР ТИЗИМИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ.....	10
<b>3. Акмал Менглибоев</b> СУРХОН ВОҲАСИДА 1921-1922 ЙИЛЛАРДА МИЛЛИЙ ОЗОДЛИК ҲАРАКАТИНИНГ КУЧАЙИШИ.....	15
<b>4. Baxtiyor Nazirov</b> XOTIN-QIZLAR SPORTINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI VA MAVJUD MUAMMOLAR.....	22
<b>5. Mukhiddinjon Primov</b> O‘ZBEKISTONDA KARTOGRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARNING QO‘LLANILISHI.....	28
<b>6. Asror Raximov</b> QARSHI CHO‘LI TARIXIGA NAZAR.....	35
<b>7. Kamoliddin Toshov</b> IKKINCHI JAHON URUSH YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATI AHOLISINING G‘ALABAGA QO‘SHGAN MUNOSIB HISSASI.....	42
<b>8. Sanjarbek Shoyimov</b> SOVET-AFG‘ON URUSHIDA O‘ZBEKISTONNING ISHTIROKI VA URUSHNING U UCHUN SALBIY OQIBATLARI.....	49
<b>9. Ikrom Xudayberdiyev</b> DYURAND CHEGARA CHIZIG‘IGA AFG‘ONISTON VA POKISTONNING MUNOSABATI.....	57
<b>10. Иззат Юсупов</b> МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА “ЎЗБЕКИСТОН ПОЧТАСИ” БУХОРО САМАРҚАНД ВА НАВОИЙ ФИЛИАЛЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ.....	63
<b>11. Шерзоджон Чориев</b> АРХИВ ҲУЖЖАТЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОННИНГ ИЖТИМОИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИГА ДОИР ТАРИХИЙ МАТЕРИАЛЛАР.....	69
<b>12. Мардон Хасанов</b> ХОРАЗМДАГИ ИСЛОМДАН ОЛДИНГИ ДИНИЙ ҚАРАШЛАР (ХРИСТИАНЛИК МИСОЛИДА).....	76



**Mukhididinjon Omonovich Primov,**  
Perfect University Gumanitar  
fanlar kafedrasi dotsenti (PhD)

## O'ZBEKISTONDA KARTOGRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI

**For citation:** Mukhididinjon O. Primov. THE USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE ORGANIZATION OF CARTOGRAPHIC ACTIVITIES IN UZBEKISTAN. Look to the past. 2024, vol. 7, issue 1, pp.28-34

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10614757>

### ANNOTATSIYA

Kartografiya o'zining mahsuloti bilan ko'plab xo'jalik, fan, madaniyat, ta'lim va boshqa sohalarni ta'minlaydi. O'z navbatida u kartalarni yaratish uchun ko'plab ma'lumotlarni ushbu sohalardan oladi. Kartografiyada kartalarni tuzish uchun foydalaniladigan istalgan shakldagi (suratli-kartografik, grafikli, kesma, diagramma, jadval, raqam, matn va boshqa) hujjatlarga manbalar deyiladi. Binobarin, har qanday kartaning qadr-qimmatini – uning mukammalligi, aniqligi, zamonaviyligi va mazmunini ishonchliligi – har doim shu kartani tuzishga jalb etilgan manbalarning sifatiga bog'liq bo'ladi. Zamonaviy kartografiyani havo va sun'iy yo'ldosh tasviridan alohida tasavvur qilib bo'lmaydi. Bugungi kunda biz foydalanadigan xaritalarda yer osti kuzatuvlaridan emas, balki ko'proq rasmlardan olingan ma'lumotlar bor va ular asosiy ma'lumot manbai bo'lib qolishi kerak. Ushbu maqolada O'zbekistonda kartografik faoliyatni tashkil etishda zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi tarixi va bu borada Toshkent kartografiya fabrikasida qilingan amaliy ishlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Kartografiya, Toshkent kartografiya fabrikasi, kartografik model, kollektivlashtirish, Selxozaerosyomka, O'rta Osiyo aerofotosyomka, Aerogetrest, Harbiy topografik bo'lim, astronomiya observatoriyasi, nivelirlash, Yergeodezkadastr, Merkator, fotogrammetriya, elektron kartografiya, Buyuk Ipak Yo'li turistik kartalari

---

**Муҳиддинжон Омонович Примов,**  
Доктор философии по историческим наукам  
(PhD) Доцент кафедры Гуманитарных  
наук Perfect University

## ПРИМЕНЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОРГАНИЗАЦИИ КАРТОГРАФИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

### АННОТАЦИЯ

Картография обеспечивает своей продукцией многие экономические, научные,

культурные, образовательные и другие области. В свою очередь, для создания карт требуется много данных из этих областей. В картографии источниками называются документы любой формы (фотокартографические, графические, поперечные, схематические, табличные, числовые, текстовые и т. д.), используемые для создания карт. Поэтому ценность любой карты – ее совершенство, точность, современность и достоверность содержания – всегда будет зависеть от качества источников, участвовавших в ее создании. Современную картографию невозможно представить отдельно от аэрофотоснимков и спутниковых снимков. Карты, которые мы используем сегодня, содержат больше информации из изображений, чем из наземных наблюдений, и должны оставаться основным источником информации. В данной статье описана история использования современных технологий в организации картографической деятельности в Узбекистане и практическая работа, проделанная в этом направлении на Ташкентской картографической фабрике.

**Ключевые слова:** Картография, Ташкентская картографическая фабрика, картографическая модель, коллективизация, Сельхозаэросъемка, Среднеазиатская аэрофотосъемка, Аэрогеотрест, Военно-топографический отдел, астрономическая обсерватория, нивелировка, Геодезический кадастр, Меркатор, фотограмметрия, электронная картография, туристические карты Великого шелкового пути.

**Mukhiddinjon O. Primov,**

Associate Professor (PhD) of the Department  
of Humanities of Perfect University

## THE USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE ORGANIZATION OF CARTOGRAPHIC ACTIVITIES IN UZBEKISTAN

### ABSTRACT

Cartography provides many economic, scientific, cultural, educational and other fields with its products. In turn, it takes a lot of data from these areas to create maps. In cartography, documents of any form (photo-cartographic, graphic, cross-section, diagram, table, number, text, etc.) used to create maps are called sources. Therefore, the value of any map - its perfection, accuracy, modernity and reliability of its content - will always depend on the quality of the sources involved in its creation. Modern cartography cannot be imagined separately from aerial and satellite images. The maps we use today contain more information from images than ground observations, and should remain the primary source of information. This article describes the history of the use of modern technologies in the organization of cartographic activity in Uzbekistan and the practical work done in the Tashkent cartography factory in this regard.

**Index Terms:** Cartography, Tashkent cartography factory, cartographic model, collectivization, Selkhozaerosyomka, Central Asian aerial photography, Aerogeotrest, Military topographic department, astronomical observatory, leveling, Geodetic cadastre, Mercator, photogrammetry, electronic cartography, Great Silk Road Tourist maps

### 1. Dolzarbli:

“Karta” atamasi o‘rta asrlardan buyon qo‘llanib kelinmoqda. Bu atama lotincha “chartes” so‘zidan olingan bo‘lib, papirus qog‘oz varag‘i degan tushunchani bildiradi. “Xarita” atamasi yunoncha grafikalar so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, yozuv uchun varaqni anglatgan. Qadimgi zamonlardan beri geografiyaga kirgan bu ta‘rif noaniq va to‘liq emas edi. Birinchidan, bu yer yuzasining har qanday fotosuratiga, shuningdek landshaftga nisbatan – tasviriy san‘at yordamida hududning tasviriga tegishli. Ikkinchidan, u xaritaning vazifalarini yer yuzasi tasvirini cheklaydi, zamonaviy xaritalar esa turli xil tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni (masalan, havo harorati va bosimi, aholining milliy tarkibi va boshqalar) geografik konvertida va hatto undan tashqaridagi chegaralarni ham qamrab oladi. (masalan, ba‘zi geologik xaritalarda, orbital parvozlar xaritalarida)[7. – C. 4-5.].

Keyingi yillarda, kartografiya fan va texnika hamda ishlab chiqarishning boshqa sohalari bilan bog‘liq

holda rivojlanishi tufayli kartalarni tuzish va foydalanishda katta ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bu o'zgarishlarning asl ma'nosi hozirgi zamonaviy kompyuterlar imkoniyatlaridan foydalanib, kartografik ma'lumotlarga ko'ra joyning raqamli modelini tuzish, ortofotoplanlarni tayyorlash va amalda joriy etishdan iboratdir. Lekin kartografiyaning bugungi rivojlanish darajasi karta to'g'risidagi tasavvurga yana ikkita birinchi darajali ahamiyatga molik bo'lgan tamoyilni kiritishni taqozo etadi. Kartalar haqidagi tasavvur – borliqni obrazli-belgi modellari sifatida ilmiy kartografiyaning predmeti – tabiat va jamiyat obyektlarini, ularning joylanishi, xususiyatlari, o'zaro aloqadorliklari hamda vaqt mobaynida o'zgarishlarini kartalar va boshqa kartografik modellar vositasida aks ettirish, tadqiq qilishdan iborat, deb hisoblashga imkon beradi.

## **2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:**

SSSR da mamlakatni industrilashtirish, qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini yangi, zamonaviy texnika asosida qayta qurish, mamlakatni mudofaa qobiliyatini oshirish, mamlakatdagi tabiiy resurslarni o'rganish, hisobga olish hamda ulardan unumli foydalanish kabi vazifalar yangi mukammal kartalarga bo'lgan talabni oshirdi. Shu munosabat bilan geodezik o'lchash va plan olishda 1929 yildan eng arzon va samarali aerofotopografik usuldan foydalana boshlandi. Shu munosabat bilan 1932 yilda Yer ishlari xalq komissarligi qoshida "Selxozaerosyomka" tashkiloti tuzilgan. Bundan tashqari SSSR va dunyo hududini aniqlash maqsadida 1933 yildan gravimetrik plan olish ishlari amalga oshirildi [4. – B. 15.].

1933 yil 15 aprelda O'rta Osiyo aerofotosyomka otryadi rahbari Tamanov 1 mayga qadar o'z otryadiga qulay samolyot va zamonaviy fotoapparat va kameralar so'raydi [8]. 1933 yilda O'rta Osiyo Iqtisodiy qo'mitasi raisi Paskutskiy Aerogeotrestga O'rta Osiyoda geodezik va kartografik ishlar olib borish uchun 200 000 rubl ajratilgani [12, – B. 48], ayni damda bu ish bilan O'rta Osiyoda Aerogeotrest va Harbiy topografik bo'limdan tashqari 30 ga yaqin tashkilot bu ish bilan shug'ullanayotgani va ajratilgan mablag' sarf-xarajatlarga yetmasligi bildirilgan [9]. Bundan ko'rish mumkinki, 1933 yilda olib borilgan hisob-kitobga ko'ra, O'rta Osiyo respublikalariga geodezik va kartografik ishlar olib borish uchun Markaz tomonidan yetarli mablag' va texnikalar bilan ta'minlanmagan. Ammo bunday muammolarga qaramasdan, 1933 yil Toshkent astronomiya observatoriyasi Toshkent-O'ratepa oralig'ida I klass triangulyatsiya tarmog'ini tashkil etgan bo'lsa, O'rta Osiyo aerofotogeodeziya tresti Kogon-Termiz, Qarshi-Kitob, Qo'qon-Termiz, Qarshi-Kitob, Qo'qon-Namangan-Andijon-Gorchakovo yo'nalishida nivelirlash o'tkazgan [3. – B. 92-93.]. Umuman olganda XX asrning birinchi choragida O'zbekiston viloyatlarining nisbatan aniq parametrlarda hisobga olingan xaritalarini ishlab chiqishda amaliy ishlar qilindi.

Ikkinchi jahon urushi mobaynida zaruriy tabiiy resurslar joylashish o'rnini aniqlash hamda ularning aniq xaritalarini tuzish ehtiyoji zamonaviy kartografik tadqiqotlar hamda ularning bevosita mahsuli bo'lgan yuksak texnologik asosga ega xaritalarning yuzaga kelishi hamda jadallik bilan takomillashib borishida hal qiluvchi tarixiy omil vazifasini bajardi. Bu borada Toshkent kartografiya fabrikasida olib borilgan ilmiy izlanishlarning mahsuli sifatida mamlakatimiz tabiiy sharoiti va resurslarini o'rganish, tabiatini muhofaza qilish, xalq xo'jaligiga taalluqli bir qancha kartalar chop etilishiga sabab bo'ldi.

Urushdan keyingi 1950–1980 yillar davri masofani o'lchash uchun elektron topografik asboblarni ishlab chiqish, aksariyat mamlakatlar tomonidan milliy darajadagi topografik xaritalarni yaratish uchun fotogrammetriyadan keng foydalanish, inersial tizimlar va yangi texnologiyalar, Yerning aniq shakli va hajmini o'lchash uchun sun'iy yo'ldoshlardan foydalanish bilan tavsiflanadi. Bu vaqt, shuningdek, topografik xaritalashda ma'lumotlarni zamonaviy ilmiy usullar bilan qayta ishlash uchun keng qo'llaniladigan elektron kompyuterlarning jadal rivojlanishi bilan ajralib turadi, bu esa eski empirik usullarga nisbatan yuqori hisoblash quvvatini talab qiladi [11. – P. 7.].

SSSR tarqab ketganidan so'ng Toshkent kartografiya fabrikasida ishlab chiqarish hajmi keskin qisqarib, qo'shni davlatlar uchun xaritalar nashr etish kamaydi. Ishlov berilayotgan xaritalar tugatilib, ishlar yana bir smenada qayta atshkil etildi. Ko'p asbob uskunalarning ishsiz qolgani va fabrikani saqlab qolish uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulot tarkibini yangi suveren davlatni xilma-xil kartografik extiyojlarini o'rganishni talab etdi. O'tish davri korxonadan turli davlat va nodavlat tashkilotlardan tushayotgan buyurtmalarni sifatli qilib tayyorlashni talab etardi. Biroq

mavjud texnikalarni qo‘llab yuksak darajadagi mukammal xarita ishlab chiqish mushkul vaziaf edi. Ammo xodimlarning tinimsiz izlanishlari bu fabrikani saqlab qolish va yanada yuksaltirish imkonini berdi.

1997 yili geodeziya va kartografiya boshqarmasi O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasi “Yergeodezkadastr” deb o‘zgartirildi va boshqa ishlar bilan birga, uning zimmasiga kartografik ishlarni bajarish xalq xo‘jaligi sohalarini, turli tashkilot va idoralarni, fanni va aholini kartografik ma‘lumotlar bilan ta‘minlashdek yuksak vazifalar yuklatildi [10. – B. 5-6.].

1998 yilda korxonada “Art – Line” nemis fabrikasining “MERKATOR” elektron kartografik tizimiga ega bo‘ldi. Yangi uskunalarni o‘zlashtirish boshlandi, xaritalarni qo‘lda tuzishdan kompyuter yordamida yaratishga bosqichma-bosqich o‘tildi. Fabrika kompyuter kartografiyasi bo‘limi boshlig‘i O.A. Ibragimov va katta muharrir L.G. Lilar Germaniyaga malaka oshirish uchun yuborildi va “Merkator” tizimini ishlab joriy etilishi kartografik mahsulotlarning yaratilishini 3-4 marotaba tezlashtirdi.

2000 yilda Toshkent kartografiya fabrikasida 1:1,5 mln. masshtabda O‘zbekistonni devoriy “Iqlim o‘quv kartasi” chop etilgan, unda hududimiz to‘g‘risida yetarli iqlimiy ma‘lumotlar berilgan [5. – B. 113 ]. 2003 yilda 4 bo‘yoqli “KBA Rapida 105» ofset bosma mashinasi ishga tushirildi va xaritalar, atlaslar va boshqa kartografik hamda poligrafik mahsulotlar ishlab chiqarishning berk sikli yuqori sifat darajasida ta‘minlandi. Yangi texnologiyalarning o‘zlashtirilishi bilan xarita va atlaslarni tayyorlash muddati sezilarli qisqardi, ularni sifati oshdi, xaritalarni dizayni va badiiy jihozlanishi yaxshilandi. Xullas, fabrika Toshkent shahridagi boshqa poligrafik korxonalar bilan raqobat qila oladigan bo‘ldi.

Nashr bo‘limi korxonaning asosiy struktura bo‘limi bo‘lib, turli turdagi poligrafik va kartografik mahsulotlarni nashr ishlarini bajaradi. 1996–2009 yillarda bo‘limni 1984 yilda O‘zbekiston Yuqori soveti prezidiumining Faxriy yorlig‘i, 1992 yilda “Faxriy geodezist” unvonini olgan L.V. Ovcharova boshqargan [1. – B. 29.].

2004 yilda fabrikada O‘zbekiston Respublikasining 1:1 000 000 masshtabdagi devoriy umumiy qisqartirilgan xaritasi tuzilgan. Xarita fonida sifatli rangda qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuvi, belgilar usuli bilan sanoat punktlari ifodalangan [6. – B.107.].

Kartalar, yuqorida aytib o‘tilganidek, inson faoliyatining turli sohalarida keng qo‘llaniladi. Ilmiy tadqiqotlarda maxsus tadqiqot metodi – kartografik tadqiqot metodi qo‘llaniladi, uning mohiyati ularda tasvirlangan hodisalarni bilish uchun xaritalardan foydalaniladi.

Zamonaviy kartografik tadqiqot metodida obyektning xilma-xil xususiyatlarini o‘rganish, ularning miqdoriy xususiyatlari va fazoviy tarqalish belgilarini aniqlash uchun ko‘plab metodlar mavjud. Bundan tashqari, katta seriyali xaritalarni tahlil qilish va turli hodisalar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash yoki ularning dinamikasini kuzatish imkonini beradigan metodlar mavjud [2. – C. 105-106.].

An‘anaviy va balandlikdagi samolyotlar, sun‘iy yo‘ldoshlar, kosmik stansiyalar va sayyoralararo laboratoriyalarga o‘rnatilgan fotokameralar va televizion kameralar tadqiqotchilarga juda katta hajmdagi turli xil suratlarni yetkazib beradi. Ular hududiy miqyosi jihatidan farq qiladi va turli diapazonlarda amalga oshiriladi: ko‘rinadigan, infraqizil, radio to‘lqinlari va boshqalar. Fotogrammetriya va fazoviy (fazoviy) tasvirlarni dekodlash metodlari ularga geodezik tarmoqqa ulanishga, ularda tasvirlangan obyektning tanib olishga imkon beradi [2. – C. 13.].

Natijada, kartografiya falsafiy, texnik, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan keng va qimmatli ikki tomonlama aloqalarga ega bo‘lgan kognitiv fan sifatida namoyon bo‘ladi. Kartografiya dialektik materialistik nazariya va ilmiy bilish metodologiyasining yutuqlariga asoslanadi, ilg‘or texnik vositalar va avtomatlashtirishdan foydalanadi. U zamonaviy matematik apparatlar va kompyuter texnologiyalaridan va zamonaviy aerokosmik texnikalardan keng foydalanadi. Shu bilan birga, kartografiya doimiy ravishda Yer va jamiyat ilmlari bilan o‘zaro aloqalarni kengaytirib, uning ilmiy qiziqishlari va amaliy qo‘llanmalari doirasini kengaytirmoqda, yangi ilmiy yo‘nalishlarni rivojlantirishni rag‘batlantirmoqda va har xil darajadagi amaliy iqtisodiy qarorlarni qabul qilish uchun kartografik yordamni yaratmoqda.

2004 yilda Elektron kartografiya va dizayn bo‘limi deb nomlangan №1 karta tuzish sexi, kompyuter-karta tuzish bo‘limi korxonaning yuragi desak adashmaymiz. Bu bo‘limda Y.V. Kramskaya, T.V. Pyatova kabi raxbarlar, L.A. Guseva, A.I. Nagornix, I.I. Bublik kabi tajribali maharrirlar faoliyat ko‘rsatgani hurmat bilan tilga olinadi. 2002 yilda bo‘limga tajribali kartograf Li Lyudmila Gesunovna raxbar etib tayinlangan. Ko‘p yillik tajribaga ega R.X. Galiulina, G.K. Tekenova, I.A. Ustinova, T.B. Chernyavskaya kabi xodimlar bugungi kunda ham dunyoning va O‘zbekistonning 2 va 4 varaqli kartalari, O‘zbekiston viloyatlarining ma‘lumotnoma kartalari, Toshkent shahri va shahar transport sxemasi, Buyuk Ipak Yo‘li turistik kartalari, o‘rta maktab uchun geografiya va tarixdan atlaslar, “Toshkent” atlas, dunyoning Kichik atlaslarini nashr etishda faol ishtirok etib kelmoqdalar.

2005 yilning 8 fevralida korxonaga tarkibiga “Agroxarita” kartografiya fabrikasi va Davlat kartografiya fondi kiritildi. Korxonaga “Kartografiya” davlat ilmiy-ishlab chiqarish korxonasi degan nom oldi.

Korxonaga oldiga quyidagi vazifalar qo‘yildi:

- Kartografik asarlarni (plan, xarita, atlas, globus loyihalash, tuzish va nashr qilish);
- Kartografik asarlarni yaratishga zamonaviy ilg‘or texnologiyalarni joriy etish;
- Umumgeografik, siyosiy-ma‘muriy, ilmiy ma‘lumotnoma va mavzuli xarita va atlaslarni, o‘quv kartografik qo‘llanmalarnigrafiik, raqamli va boshqa shakllarda tuzish va nashr etish;
- Davlat va maxsus topografik plan va xaritalarni nashrga tayyorlash va chop etish;
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya ishlarini kartografik ta‘minlash;
- Jahon standartlariga javob beradigan kartografik asarlarni yaratish uchun mamlakatimizdagi va yaqin-uzoq xorij davlatlaridagi soha korxonalarini, ilmiy va jamoat tashkilotlari, o‘quv muassasalari bilan o‘zaro korporativ hamkorlikni rivojlantirish va boshqalar [10. – B. 7].

Bu davrda tumanlar qishloq xo‘jaligi kartalarini nashri bo‘yicha guruh yaratilib, kartalarni bezash ishlari qo‘lda tuzish usulidan to‘liq kompyuter usuliga o‘tkazildi. Bunday kartalarni xususiyatlarini o‘rganishda “Agroxarita”dan kelgan mutaxassislar I.G. Pavlova va O.I. Chipenkolar har tomonlama yordamlari bilan uch yilda Andijon, Namangan, Samarqand, Buxoro va Qorapalg‘ositon Respublikalarining qishloq xo‘jaligi kartalari bezaldi [1. – B. 24]. 2011 yilda “Rayobi 784 E” ofset bosma, 2015 yilda “STR Amsky Aurora T848” va 2016 yilda rizograf “Riso E748” mashinalari o‘rnatildi. Elektron kartografiya va dizayn bo‘limi xaritalar tuzishning zamonaviy uslublariga o‘tdi va kartografiyada geoaxborot tizimlarini o‘zlashtirdi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining e‘lon qilinishi mustaqil davlat bozorini to‘liq ta‘minlash maqsadida uning turli kartografik mahsulotlarga bo‘lgan talabini yanada izchil o‘rganish borasida kartograflar oldiga yangi vazifalar qo‘ydi. “Kartografiya” DIICHKning eng muhim vazifalaridan biri maktabning barcha sinf o‘quvchilarini o‘quv nashrlari bilan ta‘minlash deb belgilandi. 4-9 sinflar uchun geografiya fani bo‘yicha atlaslar va yozuvsiz xaritalar, 5-11 sinflar uchun tarix fani bo‘yicha atlaslar va yozuvsiz xaritalar zamon saviyasida tayyorlandi va chop etildi.

Hozirgi O‘zbekistonning devoriy (siyosiy-ma‘muriy va tabiiy), mavzuli devoriy (transport, aholi, iqlim, qishloq xo‘jaligi, foydali qazilmalar, turistik va boshq.), viloyatlarning iqtisodiy va tabiiy, dunyoning siyosiy, yarim sharlar, materiklar, O‘rta Osiyo va Qozog‘istonning tabiiy, Markaziy Osiyo mamlakatlarining xaritalariga talab katta. O‘zbekiston Respublikasining (Toshkent, Samarqand, Xiva, Qarshi, Nukus, Fargona va boshq.) shaharlari planlari davriy ravishda yangilanib chop etilmoqda. Hozirgi kunda “Kartografiya” DIICHK xodimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Milliy Atlasi tayyorlanmoqda.

Korxonaning “Agroxarita” kartografiya fabrikasi va Davlat kartografiya bilan birlashtirilishi natijasida qishloq xo‘jaligi xaritalarini ishlab chiqarish yangi darajaga ko‘tarildi: nashr qilish muddatlari qisqardi, chiqarilayotgan tumanlar qishloq xo‘jaligi xaritalarining sifati yaxshilandi. “Nashautec 582 AO” raqamli ko‘paytirish apparatlari yordamida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, O‘zbekiston viloyatlari va Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastr boshqarmalarining buyurtmalari tez va sifatli bajarilmoqda. “Kartografiya” DIICHKda kartografik mahsulotlar

chiqarishdan tashqari poligrafik mahsulotlar: jurnallar, bukletlar, plakatlar, broshyuralar, kalendarlar, daftarlar, etiketkalar va boshqa mahsulotlar ham katta miqdorda chop etiladi.

### 3. Tadqiqot natijalari:

Bugungi kunda geografik xarita va atlaslar hayotimizdan muhim o‘rin olgan. Har kuni gazeta, jurnal va oynai jahon ekranlarida xaritalarni ko‘ramiz. Sobiq Ittifoq davrida asosan O‘rta Osiyo respublikalari uchun turistik va yozuvsiz xaritalar chop etilardi. Yildan-yilda kartografik asarlarga ehtiyojning oshib borayotgani. “Kartografiya» DIICHK O‘zbekiston Respublikasining eng yirik kartografik korxonaga aylantirdi. Xususan, 2012 yil korxonadan rus tilida ilmiy – ma’lumotnoma “O‘zbekiston geografik atlas” tuzilib, nashr etildi. Mazkur atlas ilmiy – ma’lumotnoma tipidagi yangi informatsion kartografik nashr bo‘lib, u fan, ishlab chiqarish va madaniyatni har xil soha mutaxassislari, davlat apparati xodimlari, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari o‘qituvchilari va talabalari, shuningdek, aholining keng tabaqalariga mo‘ljallangan. Atlasda 12 ta alohida-alohida bo‘lim bo‘lib, 135 ta ko‘p rangli umumgeografik va mavzuli xaritalar berilgan. Ular O‘zbekiston tabiiy sharoiti va resurslarini o‘rganish uchun boy materialni o‘z ichiga olib, tabiatning murakkab komponentlari haqida aniq ma’lumot olishga yordam beradi [10. – B. 7.].

Taklif qilinayotgan mahsulotlarning xilma-xilligi va xodimlarning malaka darajasi zamonaviy kartografiya va poligrafiya ishlab chiqarishning barcha masalalarini muvaffaqiyatli hal etish imkonini berdi. Korxonani yanada rivojlantirish va zamonaviy uskunalar bilan texnologik ta’minlash ishlari davom etmoqda, bu bugun ishlab chiqarish jarayonining sifat darajasi raqobatbardoshligi va barqarorligini yanada ko‘tarishga yordam beradi.

Zamonaviy kartografiyaning rivojlanishi ikkita asosiy yo‘nalishni ko‘rsatadi. Bir tomondan, u texnologiya va avtomatlashtirish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan bilimlarning muhandislik-texnik tarmog‘i bo‘lsa, ikkinchi tomondan, umumiy bilimlar nazariyasi, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan eng yaqin aloqada bo‘lgan kognitiv fan sifatida takomillashtirilmoqda. Zamonaviy kartografiya rivojlanishining eng istiqbolli, jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri bu geografik kartografiya bo‘lib, uning asosini geografik tizim(tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy)larni xaritalar yordamida o‘rganishdir. Geografik kartografiyaning vazifalariga tabiatni muhofaza qilish va resurslardan oqilona foydalanish uchun kartografik yordam ko‘rsatish, yangi yerlar va suv zonalarini o‘zlashtirish, sanoat va fuqarolik qurilishi, energetikani rivojlantirish kiradi[2. – C. 9.].

### 4. Xulosalar:

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki geografik karta va atlaslar bugun bizning hayotimizdan mustahkam o‘rin olgan. Kartalarni har kuni gazetalarda, jurnallarda, oynai jahon ekranlarida ko‘ramiz. Chunonchi xorij xabarlar, haftaning muhim voqealari, ob-havo bashorati, mamlakat ichidagi holatlar haqidagi xabarlar, dala ishlari va ulkan qurilishlarning borishi haqidagi yangiliklar, dam olish kunlariga mo‘ljallangan turistik safarlar haqidagi maslahatlar va boshqa shu kabi ma’lumotlarni kartasiz tushunish qiyin. Shu sababli bunday xabarlar kartasiz berilmaydi. Tarix fanini o‘qitishda kartaning ahamiyati nihoyatda katta. Bu o‘quv predmetlarini kartasiz o‘rganishni hatto tasavvur qila olmaymiz. Ular nafaqat ko‘rgazmali qurol, balki joy to‘g‘risidagi bilimlarning kitob kabi boy manbai hamdir. Zero, kartalar bilan ishlash o‘quvchilarga ijodiy tasavvur qilishni, yodda saqlashni, mantiqan fikrlashni, tahlil qilishni, taqqoslashni, o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishni, xulosa qilish yo‘llarni o‘rgatadi. Kartografik asarlardan maktabda o‘quvchilarning faolligini oshirishda, mavzunini kundalik hayot bilan bog‘lashda, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda asosiy qurol sifatida foydalanish mumkin.

### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. “Картография” давлат илмий-ишлаб чиқариш корхонаси. – Тошкент, 2009. (“Kartography” state research and production enterprise. – Tashkent, 2009.)
2. Берлянт А.М. Карта-второй язык географии. – М.: Просвещение, 1985. (Berlyant A.M. Map is the second language of geography. – М.: Education, 1985.)
3. Гальков Ч.В., Раҳимбеков Р.У., Югай Р.Л. Ўзбекистон карталари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. (Galkov Ch.V., Rahimbekov R.U., Yugay R.L. Maps of Uzbekistan. – Tashkent:

- Teacher, 1975.)
4. Қўзибоев Т. Геодезия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. (Koziboev T. Geodesy. – Tashkent: Teacher, 1975.)
  5. Мирзалиев Т. Картография. – Тошкент: «Фан», 2004. (Mirzaliev T. Cartography. - Tashkent: “Fan”, 2004.)
  6. Раҳмонов Д.Н., Эгамбердиев А., Жалолиддинов Б.М. Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятларнинг ўқув деворий умумқисодий хариталари тизими ҳақида // “Ўзбекистонда комплекс ва мавзули харитага олиш: тарих, назария, методлар, амалиёт” мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари. –Тошкент, 2014. (Rahmonov D.N., Egamberdiev A., Jaloliddinov B.M. About the system of educational wall general economic maps of the Republic of Karakalpakstan and regions // Materials of the scientific-practical conference on the topic “Comprehensive and thematic mapping in Uzbekistan: history, theory, methods, practice”. – Tashkent, 2014.)
  7. Салищев Н.А. Картоведение. – М.: Изд-во Московского университета, 1990. (Salishchev N.A. Cartography. – М.: Moscow University Publishing House, 1990.)
  8. ЎзМА Р-9-фонд, 1-рўйхат, 1205-иш, 7-варақ.( UzNA R-9 fund, list 1, case 1205, sheet 7.)
  9. ЎзМА Р-9-фонд, 1-рўйхат, 1205-иш, 28-варақ. (UzNA R-9 fund, list 1, case 1205, sheet 28.)
  10. Эгамбердиев А. “Картография” илмий ишлаб чиқариш давлат корхонаси 80 йил халқ хизматида // “Ўзбекистонда комплекс ва мавзули харитага олиш: тарих, назария, методлар, амалиёт” мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2014. (Egamberdiev A. “Cartography” scientific production state enterprise in public service for 80 years // Materials of the scientific and practical conference on the topic “Comprehensive and thematic mapping in Uzbekistan: history, theory, methods, practice”. – Tashkent, 2014.)
  11. John N. Hatzopoulos. Topografic mapping. Covering the Wider Field of Geospatial Information Science & Technology (GIS&T). – Florida: Universal Publishers, 2008.( Jon N. Hatzopoulos. Topografik xaritalash. Geospatial axborot fanlari va texnologiyasining kengroq sohasini qamrab olish (GIS&T). – Florida: Universal Publishers, 2008)
  12. Primov M. 1920-1930 yillarda O‘zbekistonda kartografiya ishi tarixi // O‘zMU xabarlar. – Toshkent, 2019. (Primov M. History of cartography work in Uzbekistan in 1920-1930 // News of UzMU. – Tashkent, 2019.)



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 7, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 7, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000